

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 7 Jild 4  
**2024**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

***№ 7 (4) - 2024***

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизиллович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### 12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### 13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### 19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабобовна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Abduxamidov Islombek*

O'ZBEKISTON AHOLISINING ROSSIYA FEDERATSIYASIDA MEHNAT MUHOJIRLIGI TARIXI .....	10-18
--	-------

*Фарманова Гульнара Комилевна*

ПОДНЯТИЕ МЕТОДИКИ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ НА ОБЩЕМИРОВОЙ УРОВЕНЬ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ .....	19-24
---	-------

*Индиаминова Шоира Амриддиновна*

РАЗВИТИЕ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА В САМАРКАНДСКОМ СОГДЕ В ЭПОХУ РАННЕГО СРЕДНЕВЕКОВЬЯ .....	25-29
--	-------

*Mirzakhmdamova Dildora Zafarovna*

XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA FARG'ONA VILOYATIDA IPAKCHILK ORQALI KASANACHILIK VA UY MEHNATINI RIVOJLANTIRISH .....	30-35
--	-------

*Ismoilova Parvina*

TURKISTON MINTAQASIDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR: ROSSIYA KAPITALI UCHUN KANALLARNING SHAKLLANISHI (19-ASR OXIRI - 20-ASR BOSHLARI) .....	36-41
---	-------

*Jomurodov Lazizbek Islomovich*

O'ZBEKISTONDA TERI-TANOSIL KASALLIKLARIGA QARSHI KURASH JARAYONI .....	42-46
---	-------

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Назарова Раъно Рустамовна, Нигматуллаева Гульчехра Нуруллаевна*

ОСНОВНЫЕ ФАКТОРЫ, КРИТЕРИИ И ПОКАЗАТЕЛИ, ОБЕСПЕЧИВАЮЩИЕ УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ В СФЕРЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ .....	47-54
---	-------

*Yegamberdiyeva Xurshidaxon Alisherovna*

VAGONLARDAN FOYDALANISHNING SIFAT KO'RSATKICHINI OSHIRISHNI TADQIQ QILISH .....	55-61
--	-------

*Mamadaliyev Ulug'bek*

JAHON TURIZMIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH HOLATI .....	62-69
---	-------

*Jalilov Arslon Xoshimovich*

TEMIR YO'L TRANSPORTINING INNOVASION MUHITDAGI RAQOBATDOSHLIK DARAJASINI BAHOLASH .....	70-75
--	-------

*Kamchibekov Farxod Olimjonovich*

O'ZBEKISTON HUDUDLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHDA MAXSUS IQTISODIY HUDUDLAR VA KICHIK SANOAT ZONALARINING ROLI .....	76-82
---	-------

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Djurayev Lukmon Narzullaevich*

ZAMONAVIY O'ZBEKISTON JAMIYATIDA YOSHLAR IQTISODIY MADANIYATINING TRANSFORMATSIYALASHUVI .....	83-87
---	-------

*Norkulov Ubaydulla Umarovich*

MAHALLADA JINOYATLARNI ERTA ANIQLASHDA JAMOATCHILIK NAZORATINI

KUCHAYTIRISHNING IJTIMOIIY-FALSAFIY MEKANIZMLARI ..... 88-92

*Пулатов Шердор Нематёнович*

ДОКТРИНА ЛЮБВИ АЛИШЕРА НАВАИ И МАХАТМЫ ГАНДИ ..... 93-105

*Yusupov Murodali Sunnatovich*

O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION TIZIMLARNI QO'LLASHNING IJTIMOIIY-

FALSAFIY MASALALARI ..... 106-110

*Suleymanov Sarvar Sunatullayevich*

O'ZBEKISTONNING YANGI DAVRGA XOS BO'LGAN MA'NAVIY TEXNOLOGIYALARNING

IJTIMOIIY-FALSAFIY ASOSLARI ..... 111-116

*Shernazarov Ravshan Avazovich*

SIYOSIY E'TIQOD: UNING TIZIMI VA FUNKSIYASINING FALSAFIY TAHLILI ..... 117-122

*Nasrullayev Ravshanxon Sirojxonovich*

VATANPARVARLIKNI IJTIMOIIY- MADANIY HODISA SIFATIDA AHAMIYATI ..... 123-126

#### **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Matkarimova Salomat Ko'ziyevna*

ALISHER NAVOIY VA HAYDAR XORAZMIY: MUSHTARAKLIK VA O'ZIGA XOSLIK ..... 127-133

*Tairova Maxfuza Abdusattorovna*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAMLUKATSHUNOSLIKKA DOIR RAMZIY VOSITALARNING

TARJIMADA QAYTA IFODALANISHI ..... 134-139

*Rahimova Maftuna*

LISONIY BELGI VA ASSOTSIATSIYA ..... 140-143

*Umaraliyeva Dildora Taxirjanovna*

O'ZBEK LATIFALARI, ULARNING TASNIFI VA TO'PLASH BORASIDA OLIB BORILGAN

TADQIQOTLAR ..... 144-147

*Xursanov Nurislom Iskandarovich*

O'ZBEK FRAZELOGIK BIRLIKLARINING PRAGMATIK TAHLILI ..... 148-154

*Umarov Umidjon Akram o'g'li*

RAMZ AXRETIPLARINING TASNIFLANISHI VA BADIY TAHLILI ..... 155-159

*Облокулова Шахло Асрор қизи*

ЗАМОНАВИЙ ЖАҲОН АДАБИЁТИДА ТАОМ ДИСКУРСИ ..... 160-164

*Nazarova Lola Maqsadilla qizi*

KORPUS LINGVISTIKASI: BNC KORPUSINING FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI ..... 165-170

*Umarxonova Dilafruz Murotjonovna*

"MARDLIK" VA "QO'RQOQLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI ..... 171-175

*Yunusova Ganjina Rustamovna*

NAZMDA YO'L XRONOTOPINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI ..... 176-180

*Мусаев Файзулло Оманович*

АРАБ ДУНЁСИДА "МАСАЛ" ИЛМИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖИ ..... 181-186

<i>Ubaydullayeva Dilafruz Fazliddinova</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI "ANGER" VA "G'AZAB " ATAMALARINING ETIMOLOGIK VA LEKSIKOGRAFIK TAHLILI .....	187-192
<i>Narmuratov Zayniddin Radjabovich</i> FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR KOMPONENTLARI TAHLILI VA ULARNING STRUKTURAVIY MODELLARI .....	193-196
<i>Masharipova Nargiza Otaxonovna</i> TARIXIY-BADIIY ASARLAR TARJIMASIDA DINIY VA TARIXIY SO'ZLAR TARJIMASI MUAMMOSI .....	197-201
<i>Икромов Нугина Ойбековна</i> ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА ЗАГЛАВИЯ ЛИТЕРАТУРНОГО ПРОИЗВЕДЕНИЯ .....	202-207
<i>Najmiddinova Mehriqul Najmiddin qizi</i> NEGATIVLIKNI IFODALOVCHI TEXNIKAGA OID TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	208-213
<i>Eshniyazova Maysara Beknazarovna</i> "NAZMUL JAVOHIR" ASARIDA G'OYAVIY BADIIY POETIKA .....	214-221
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Саидов Акроб Акмалович</i> ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ЖАЗОНИ ИЖРО ЭТИШ СИЁСАТИ ҲАМДА УНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ .....	222-230
<i>Raimova Nargiza Doroyevna</i> TIJORAT MAXFIY MA'LUMOTLARINI HIMOYA QILISH: INTELLEKTUAL MULK HUQUQI SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI .....	231-237
<i>Умурзаков Жасурбек Қосимжанович</i> КРИПТО-АКТИВЛАР НОҚОНУНИЙ АЙЛАНМАСИ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР УЧУН ЖАВОБГАРЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	238-242
<i>Nurmamatova Noila Doniyorovna</i> KONSTITUTSIYAVIY SUDLOV ORGANI TOMONIDAN FUQAROLAR VA YURIDIK SHAXSLARNING SHIKOYATINI KO'RIB CHIQISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ....	243-248
<i>Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li</i> FUQAROLARNING TADBIRKORLIK BILAN SHUG'ULLANISH HUQUQINING XALQARO VA MINTAQAVIY HUQUQIY KAFOLATLARI .....	249-260
<i>Адилбаев Бекбосын Абатбаевич</i> ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ВАКИЛЛИК ТУШУНЧАСИ, МОҲИЯТИ ВА ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ .....	261-267
<i>Турсунбоев Сардор Муроджон ўғли</i> ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА ТЕРГОВ ТУЗИЛМАЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	268-275
<i>Mukumov Bobur</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASIDA TOVAR BELGILARINI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI .....	276-282
<i>Nabiev Firuz Xamidovich</i> INTELLEKTUAL MULK SOHASIDAGI XALQARO HUQUQIY NORMLARNI O'ZBEKISTON	



RESPUBLIKASI QONUNCHILIGIGA IMPLEMENTATSIYA QILISHDA “MOSLASHUVCHANLIK” KONTSEPTSIYASINING O'RNI .....	283-289
---	---------

*Калимбетов Ерназар*

ГРАЖДАНСКИЕ ПРАВА В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА: ПОНЯТИЕ, ВИДЫ И СОДЕРЖАНИЕ В КОНТЕКСТЕ АДМИНИСТРАТИВНО-ПРАВОВОЙ ЗАЩИТЫ .....	290-297
--	---------

*Ibrohimov Azimjon Abdumot'min o'g'li*

KORPORATSIYANI AMALDA BOSHQARUVCHI SHAXSLAR JAVOBGARLIGI .....	298-306
--	---------

*Ходжаева Ширин*

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ РИСКОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРЕДДОГОВОРНЫМИ ОТНОШЕНИЯМИ .....	307-317
--	---------

*Маматкулов Камолiddин Галабаевич*

ТАҚИҚЛАНГАН ЭКИНЛАРНИ ЕТИШТИРИШ БИЛАН БОҒЛИҚ ЖИНОЯТЛАРНИ ТЕРГОВ ҚИЛИШДА ИСБОТЛАНУВЧИ ҲОЛАТЛАР ВА УЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ .....	318-323
---	---------

### **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nazarova Ra'no Sidiq qizi*

HUQUQBUZARLIKKA MOYIL BO'LGAN BOLALARDA O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI .....	324-329
---	---------

*Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna*

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QITUVCHISI KASB STANDARTINING MAZMUN TAHLILI .....	330-341
--	---------

*Hamidova Laylo Kamildjonovna*

OLIIY PEDAGOGIK TA'LIMDA ARALASH O'QITISH MODELLARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI .....	342-346
--	---------

*Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna, Uteniyazov Karimbay Kuanishbaevich*

MAKTABDA KIMYOVIY MASALALARNI ECHISH BO'YICHA MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI .....	347-357
---	---------

*Rasulova Dilafruzxon Sharobiddin qizi*

GLOBAL PEDAGOGIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA TALABALAR KOMPETENSIYASIGA METODIK YONDASHUVLAR .....	358-363
--	---------

*Kenjaboyev Sharifjon Shuxrat o'g'li*

INDIVIDUAL-KABIY RIVOJLANISH – PEDAGOGIK KASBI TARBIYASINING AJRALMAS QISMI SIFATIDA .....	364-369
---	---------

*Jalilov Umidjon Jahongirovich*

OG'IR ATLETIKA MASHQLARINING AMALGA OSHIRISH USLUBIYATI .....	370-375
---	---------

*Najmiddinova Gulnora Najmiddin qizi*

OLIIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	376-381
---	---------

**Received:** 30 June 2024**Accepted:** 5 July 2024**Published:** 15 July 2024*Article / Original Paper***IMAGINATIVE ARTISTIC POETICS IN THE WORK OF “NAZMUL JAVAHIR”****Eshniyazova Maysara Beknazarovna**

Samarkand State University independent researcher

[maysaraeshniyazova300477@gmail.com](mailto:maysaraeshniyazova300477@gmail.com)

**Abstract.** Each work is the fruit of its author's outlook, ideological-aesthetic views, life ideal and creative position. He followed the Islamic worship, behavior, and morals to an excellent level. The ideas of Islamic enlightenment are also artistically interpreted in the immortal works of the master of high religion. In all times, there were people who did not hesitate to talk about dogmatic issues without having special religious knowledge. Humanity is distinguished by the help of reason and words over the creatures created by Allah. It is important to reveal the essence of the ideology combined with rubai's of different content and to reveal it coherently and completely, logically complementing each other. The work is characterized by faith, honesty, religion, honesty, justice, goodness, manners, modesty, loyalty, generosity, diligence, contentment, contemplation, knowledge, patience, gratitude, risk-u-rajo, trust, devoted to the interpretation of important issues such as riza and fano.

**Keywords:** religion, religiosity, prayer, genius, universe, belief, worship, morality.

**“NAZMUL JAVOHIR” ASARIDA G’OYAVIY BADIY POETIKA****Eshniyazova Maysara Beknazarovna**

Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Har bir asar o‘z muallifining dunyoqarashi, g‘oyaviy-estetik qarashlari, hayotiy ideali va ijodiy pozitsiyasining mevasidir. Islom ibodati-yu muomalasi, axloq-u odobiga a‘lo darajada amal qildi. Yuksak diyonat sohibining o‘lmas asarlarida ham islomiy ma‘rifat g‘oyalari san‘atkorona uslubda badiiy talqin etilgan. Hamma zamonlarda ham maxsus diniy bilimi bo‘lmay turib, aqidaviy masalalarda so‘z yuritishdan hayiqmaydigan kishilar bo‘lgan. Olloh yaratgan maxluqlar tabiat ustidan aql va so‘zlar yordami bilan insoniyat ajralib turadi. Turli mazmundagi ruboiylar bilan birlashtirilgan mafkuraning mohiyati va uni izchil va to‘liq ochib berish, mantiqiy jihatdan bir-birini to‘ldirish muhim ahamiyat kasb etadi. Asar o‘ziga xos bo‘lgan iymon, insof, diyonat, halollik, adolat, yaxshilik, odob, hayo, vafo, saxovat, himmat, qanoat, tafakkur, ilm-u irfon, sabr, shukr, xavf-u rajo, tavakkul, rizo, fano kabi muhim masalalar talqiniga bag‘ishlangan.

**Kalit so‘zlar:** diyonat, dindoeilik, ibodat, daho, olam, e‘tiqod, ibodat, axloq.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I7Y2024N35>

Muayyan asar poetikasini tadqiq etish ijodkorning badiiy konsepsiyasi bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi. Zero, har bir asar o‘z muallifining dunyoqarashi, g‘oyaviy-estetik qarashlari, hayotiy ideali va ijodiy pozitsiyasining mevasidir. Shu bois ham buyuklarimiz “So‘zimni o‘qub anglag‘aysen o‘zumni” deya ta’kidlagan edi. Xususan, “Nazm ul-javohir” asarida ham Alisher Navoiyning olam va odam haqidagi fikr-mulohazalari Hazrat Ali tafakkuri bilan uyg‘unlikda o‘zining poetik ifodasi mavjud. Unda so‘z dahosining teran tafakkuri va ma’naviy

olami aks etgan. Bu borada A.Rustamov: “Mavlono Navoiyning diyonati hamma zamon, hamma makonning hamma xalqlari, ayniqsa, musulmonlar uchun yaxshi ugutdir. U islom ibodati-yu muomalasi, axloq-u odobiga a’lo darajada amal qildi, o’zini butunlay mamlakat taraqqiysi va el xizmatiga bag’ishladi”, deya e’tirof etgan. Binobarin, yuksak diyonat sohibining o’lmas asarlarida ham islomiy ma’rifat g’oyalari san’atkorona uslubda badiiy talqin etilgan.

Kim olam aro diyonati yo’qtur aning,  
Din nuktasida fatonati yo’qtur aning,  
Dindor ulkim, ziyonati yo’qtur aning,  
Yo’q din angakim amonati yo’qtur aning.

“Nazm ul-javohir”da 249-raqam bilan tartiblanib kelgan bu ruboiy “Lo dina liman lo amonata lahu sadaqa” (“Amonati yo’qning dini yo’q”) hikmati asosida yozilgan bo’lib, unda juda oddiy va ayni damda o’ta muhim masala “Dindor kishi qanday bo’ladi?” degan savolga javob beriladi. Ruboiyning ilk misrasi “Kim olam aro...” deb boshlanishi unda aytilajak fikrning olamshumul ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Baytda qo’llangan “diyonat” so’zi ko’pma’noli so’z bo’lib, uning birinchi ma’nosi “dindorlik”dir. Ushbu ma’noda baytdan “diniy ilmi yo’q kishining din haqida so’zlashga qobiliyati (fatonati) yo’q ma’nosi anglashiladi. Darhaqiqat, hamma zamonlarda ham maxsus diniy bilimi bo’lmay turib, aqidaviy masalalarda so’z yuritishdan hayiqmaydigan kishilar bo’lgan. Ularning bilib-bilmay bergan “fatvo”lari diniy ahkomlarning buzilishiga, odamlar o’rtasida turli fitnalarning avj olishiga olib kelgan.

Alisher Navoiyning 1485- yilda yozilgan “Nazm aljavohir” (“Marvarid baytlari”) asari. She’riyatda eski o’zbek tiliga tarjima va aranjirovka arab tilida “Nasr al-la’ali” (“Sochilgan marvaridlar”) kitobida to’plangan Ali ibn Abu Tolib so’zlarining “ruboiy” shakli. Til alifbo tartibida. Asarning muqaddimasi Allohga hamd va shukr aytish bilan boshlanadi. Alisher Navoiyning dunyo, undagi insonning o’rni va maqsadi, “so’z” va uning qudrati haqidagi axloqiy, estetik, diniy-falsafiy qarashlari jamlangan. Navoiyning yozishicha, faqat bir so’z, tabiatdagi boshqa jonzotlardan yuksak insonni gapirish qobiliyati. Faqat insonning ifoda etish qobiliyati uning fikrlari so’zlar orqali uni eng mukammal qiladi. Alisher Navoiy ko’plab Sharq mutafakkirlari kabi insonni oxirgisi va eng mukammali deb hisoblaydi, hukmronlik qilishga chaqirilgan va Olloh yaratgan maxluqlar tabiat ustidan aql va so’zlar yordami bilan insoniyat ajralib turadi. Muqaddimada shoir bu asarni yozish sabablariga ham to’xtalib o’tadi: U uzoq vaqt Ali ibn Abu Tolib ta’limotini she’rga o’tkazishga harakat qilgani, lekin ma’lum sabablarga ko’ra bunga jur’at etmaganini yozadi. Qachon Xuroson hukmdori va do’sti Husayn Boyqaro she’riyat haqidagi “Risola”si, bunda asosiy o’rinda shaxsning ulug’ligi va suzi bilan maxluqotlardan farq qilishi berilgan va Alisher Navoiyning ijodiy faoliyati beqiyos edi hayajonlanib, eski orzuimni amalga oshirishga qaror qildim deb yozadi. Shoir “Sochilgan marvaridlar” asari asosida she’riy to’plamlarini tuzadi va uni do’stiga bag’ishlaydi. Alisher Navoiy hukmdorning saxovatini, adolatini ulug’lab, o’z ijodini unga bag’ishlagach, shunday yozadi: “Bu javohirlarni mazmun mohiyatini saqlagan holda she’riyatga kiritdim. Har bir qimmatli fikr uchun men mos keladigan narsani tuzdim ichida ko’plab marvaridlarni o’z ichiga olgan kuy”.

“Yorab, Javoxirlarniki ko’chasi, manzum ett”Yorab,  
Javoxirlarniki ko’chasi, manzum ettim,  
Chekkanim anga har nukta, malum ettim,  
Har nuktaga bir tarona markum ettim,

Ko'p gavhar aning zimnida maktum ettim".

Tarjimasi:

"Alining xazinalarini she'rga aylantirib,  
Men ularning mazmunining mohiyatini qofiya bilan yasadim,  
Har bir fikr uchun men o'z ohangimni yaratdim,  
Dunyoga ularning marvarid nurlarini ko'rsatish.  
Ishning asosiy qismi quyidagi tuzilishga ega:

Birinchi xalifa Alining falsafiy gapi arab tilida berilgan va keyin eski o'zbek tilida talqin ruboiy shaklida beriladi. Turli mazmundagi ruboiylar bilan birlashtirilgan mafkuraning mohiyati va uni izchil va to'liq ochib berish, mantiqiy jihatdan bir-birini to'ldirish muhim ahamiyat kasb etadi. Birlashtiruvchi mafkuraviy yadro "inson"ning ulug'ligi, shaxsni axloqiy va ma'naviy yuksaltirish orqali bu buyuklikka munosib bo'lishga da'vatdir. Har bir to'rtlik sifatni tavsiflaydi inson tabiati, uning mohiyati ochib beriladi. Buyuk gumanist shoirning bu satrlarida boylar, insonning qarama-qarshi ichki dunyosi va bu dunyoni shakllantiradigan va unga ta'sir qiluvchi o'ziga xos hayot sharoitlari yoki boshqa ta'sirlar. To'rtliklarning har biri insonning ruh va tananing kamolotiga erishishi uchun zarur bo'lgan shartlardan birini belgilaydi. Bu yaxshi xulq-atvor, ota-onaga va atrofdagilarga hurmat, shirin so'z, mehribonlik, bag'rikenglik, do'stlik, halollik, saxovat, adolat, mehnat, xohish fan va hunarmandchilik va boshqalar.

"Nazm ul-javohir asari tarixiy va diniy asarlaridan biri hisoblanadi. Asarni ikki faslga ajratib, uning birinchi faslida "Sharq adabiyotida 11 hikmatlarni badiiylashtirish an'anasi va "Nazm ul-javohir"ning ijodiy tarixi" haqida hikmatli so'zlar o'rin olgan. "Hikmat" so'zi Qur'oni karimning 20ga yaqin o'rnida "nasihat va o'git", "nozikta'blik va ilm", "Aniqki, biz Luqmonga hikmat ato etdik", "payg'ambarlik salohiyati", "Qur'on sirlarini bilish", "U o'zi istagan kishilarga hikmat berur. Kimga hikmat berilgan bo'lsa..." kabi ma'nolarda qo'llangan. "Hikmat – "to'g'ri hukm berish", "to'g'ri qaror qabul qila olish", "Qur'ondan to'g'ri hukm chiqara olish ilmi", "to'g'ri hukmning o'zi", degan ma'nolarni ifodalaydi. Hikmat – arab tilidagi "hukm" o'zagidan turlangan kalimai shahodatlardan biridir". Alloh taolo tomonidan biz insonlarga ma'lum qilingan ilmni odamlarga yetkazib berishni maqsad qilgani tufayli hadisi sharif va donishmandlar o'gitlari hikmat deb yuritilgan. Islomiy kitoblardan oziqlangan Sharq adabiyoti tarixida hikmat atamasi keng qo'llanilgan. Shu asosda alohida she'riyat yo'nalishi ham paydo bo'lgan. Xususan, turkiy adabiyot tarixida hikmatgo'ylik maktabining asoschisi sifatida Ahmad Yassaviy nomi juda ham mashhur. Yassaviydan keyin Hakim ota, Zangi ota, Bobo Mochin, Sayyid ota, Iqoniy, Temuriy, Umuriy, Ne'matulloh kabi ko'plab adiblar hikmatnavislik ananasini rivojlantirganlar. Ushbu hikmatlarga e'tibor qaratsak, ularning barchasiga xos ikki umumiy jihatni ko'rish mumkin: islomiy-irfoniy g'oyalar ifodasi hamda xalqona bayon. Ayni fikrni Alisher Navoiyning Hazrat Ali hikmatlari asosida bitilgan "Nazm ul-javohir" asariga nisbatan aytish maqsadga muvofiq bo'ladi. Asar "sahli mumtane" (tushunilishi oson, ammo o'xshatib yozish imkonsiz) uslubida yozilgan bo'lib, unda hikmatlardagi murakkab masalalarga oddiy o'quvchi ham tushuna olishi uchun sodda, ravon tarzda sharh va izohlar berilgan.

Sharqda Hazrat Ali hikmatlarini she'rga solish an'anasi mavjud bo'lganligi bois, turkiy tilda hali biror shoir bu hikmatlarni badiiy talqin etmagani sababli shoir ko'nglida mazkur hikmatlar asosida turkiy tilda asar yozish haqida orzu qilardi va "Nazm ul-javohir" asarining yaratilishiga asosiy sabab bo'lgan bo'lsa, Husayn Boyqaroning "Risola" asarini bitishi va unda Alisher Navoiyga yuksak ehtirom ko'rsatishi hamda Balxdan Hazrat Ali qabrining qayta

topilishi munosabati bilan u yerda mazkur zot uchun maqbara qurilishi ishlarida shaxsan buyuk shoirning o'zi ham ishtirok etgani ana shu niyatning amalga oshishi yo'lida jiddiy bir turtki bo'lgan. M.Rajabova Amr ibn Bahr al-Johiz (IX asr) arab xalqlari orasida og'zaki shaklda mavjud bo'lgan "Kalomi amir al-mo'minin Ali" asari asosida qisqa hikmatlardan tashkil topgan "Nasr ul-laoliy" ("La'llar sochmasi") nomli saylanma tuzganligi, X asrda Sharif ar-Roziy "Kalomi amir al-mo'minin Ali" asosida 498 ta hikmatdan iborat "Nahj ul-balog'a" ("Yetuklik yo'li") to'plamini yaratganligi haqida ma'lumot beradi. XIII asrga kelib Rashididdin Vatvot al-Johizning "Nasr ullaoliy" asaridan 100 ta hikmatni ajratib olib, o'zining forsiy she'riy tarjima va talqini asosidagi "Sad kalima" nomi bilan ham yuritilgan "Nasr ul-laoliy" sini yaratadi. Navoiy "Nazm ul-javohir" i Rashididdin Vatvot asari bilan kompozitsion jihatdan o'xshash bo'lsa-da (buni Navoiyning o'zi "Burung'i nozim tarjima qilg'andek va avvalgi mutarjim nazm etgandek, har nuktani bir ruboiy bila ado qilildi" tarzida izohlagan edi), asar muqaddimasidagi va xotimasidagi ruboiylarni qo'shganda undagi hikmatlar soni 300 ta bo'lib, "Sad kalima" dan hajman uch baravar kattadir. Tadqiqotimizda Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari ko'plab tadqiqotlar, ilmiy manbalar va o'quv adabiyotlarida qayta-qayta takrorlab kelinganidek, Hazrat Ali hikmatlarining jamlanmasi bo'lmish "Nasr ul-laoliy" asarining she'riy tarjimasi emasligi aniqlandi. Buyuk shoir o'z asarida mazkur o'gitlar mazmunini mumtoz sharhlar, teran mushohadalar, hayotiy dalillar va badiiy tasvirlar bilan boyitishi natijasida ikki buyuk shaxsning falsafiy mulohazalari badiiy shaklda poetik talqin etilgan "Nazm ul-javohir" original asar darajasiga ko'tarila olgani isbotlab berilgan. Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asari diniy-tasavvufiy ruhda bo'lgani bois u matni mustabid tuzum davrida muayyan g'oyaviy tahrirga uchragan asarlardan sanaladi. Shu bilan birga, ushbu asardan o'rin olgan arabiy matnlar – Qur'oni karim oyatlari, hadisi sharif va Hazrat Ali hikmatlari joriy alifboga tabdil qilinganda mazkur yozuvlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi chalkashliklar ham sohada bir qator ilmiy muammolarni yuzaga keltiradi. Bu esa o'z navbatida, asarning g'oyaviy-badiiy tahlilini amalga oshirishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ikkinchi faslida "Nazm ul-javohir" asarining turli nashrlari va ilmiy-tanqidiy matni o'zaro qiyoslanib, ulardagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari muxtasar tarzda ko'rsatilgan. Muqaddimaning Hazrat Ali madh etilgan o'rnida "Janota taharri min tahtiha an-anhorun" jumlasini keladi. Oyatning to'g'ri tabdili esa "Jannatin tajriy min tahtihal anhar" bo'lib, ma'nosi "Ostidan anhorlar oqib turgan jannatlar" dir. Alisher Navoiy Qur'oni majidda takror-takror keluvchi mazkur oyatga murojaat etish orqali Hazrat Alining buyuk darajotiga ishora qiladi. "Nazm ul-javohir" asari shu paytga qadar uch marta nashr qilingan va ilmiy-tanqidiy matni tuzilgan bo'lsa-da, ushbu nashrlar turli darajadagi kamchiliklardan xoli emas. Nashrlardagi nuqsonlar, asosan, uning tabdili bilan bog'liq. Xususan, ko'p hollarda arabiy ifodalar tabdili soha mutaxassislarining jiddiy tekshiruvidan o'tmagani bois noto'g'ri fikr va talqinlarni keltirib chiqargan. Shu sababli "Nazm ul-javohir" ning turli kamchiliklardan xoli bo'lgan mukammal matnini nashr etish matnshunoslik sohasidagi eng ustuvor vazifalardandir. Ishning ikkinchi bobi "Nazm ul-javohir" ning g'oyaviy asoslari va mavzu mundariyasi" deb nomlanib, ikki faslni o'z ichiga oladi. "Nazm uljavohir" da islomiy ma'rifat g'oyalarining poetik talqini" deb atalgan birinchi fasli asardagi musulmon axloqiga xos bo'lgan iymon, insof, diyonat, halollik, adolat, yaxshilik, odob, hayo, vafo, saxovat, himmat, qanoat, tafakkur, ilm-u irfon, sabr, shukr, xavf-u rajo, tavakkul, rizo, fano kabi muhim masalalar talqiniga bag'ishlangan.

Har kimga livoyi charxi farsud kerak,

Ko'nglida sipehr dardi mavjud kerak,  
Har kimgaki, ko'ngli dardi nobud kerak,  
Har neki qazodin o'lsa, xushnud kerak.

“Davo ul-qalb ir-rizou bil-qazoi”, ya’ni “Qalbning shifosi – qazoga rozi bo’lish” hikmati asosida yozilgan mazkur ruboiyda badiiy g’oya ramziy ifodalar vositasida taqdim etilgan. Birinchi misrada “livoyi charxi farsud”, ya’ni nopok charxning bayrog’i haqida so’z boradi. Bayroq obrazi mumtoz adabiyotda maqsadga erishish ma’nosini anglatadi. Qadimda podshohlar biror g’alabaga erishganlarini bayroq ko’tarish yoki o’rnatish bilan bildirganlar. Charx esa bu yerda dunyo ma’nosida bo’lib, u ikkinchi misradagi “sipehr” (osmon) so’zi bilan bog’lanadi va baytdan shunday mazmun yuzaga keladi: “Kimga nopok charxning bayrog’i – dunyo ustidan hukmronlik kerak bo’lsa, demak, uning ko’nglida dunyo dardi bor”. Ya’ni kimning qalbida dunyoning o’tkinchi hoy-u havaslari bo’lsa, demak, u tuganmas dard-u tashvishlarga muhtalodir. Zero, dunyo matohlari kishiga faqat muammo-tashvish keltiradi. Ikkinchi baytda esa kimki ko’nglidagi dunyo dardidan xalos bo’lishni istasa, unga qazoyi qadardan nimaiki berilsa, shunga rozi bo’lishi lozimligi ta’kidlanadi. Umuman, fano mavzusi Alisher Navoiy ijodida eng ko’p yoritilgan masalalardan bo’lib, buyuk shoir nazaridagi fano insonning o’z botinidagi nafsdan kechishi orqali “qiyomati sug’ro” – kichik qiyomat deb ataluvchi ma’naviy tug’ilishni o’z boshidan kechirishini va oxir-oqibat olamni ishq, ma’rifat va haqiqat nuri bilan mushohada etishini bildiradi. Buyuk ijodkor pandnoma adabiyotning yana bir yetuk namunasi bo’lgan “Mahbub ul-qulub” asarida ham Allohdan fano maqomiga yetkazishini so’ragan edi:

Yo rabki, fano qushin romim ayla,  
Romim demayinki, saydi domim ayla.  
Ham faqr tariqida xiromim ayla,  
Ham zoviyai fano maqomim ayla.

Bu kabi tahlillar “Nazm ul-javohir”ning adib umrining oxirida yaratilgan “Mahbub ul-qulub” asariga ham muayyan darajada ta’sir etganini ko’rsatadi. Mazkur asarning ikkinchi qismidan o’rin olgan tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavozu’ va adab, zikr, tavajjuh, rizo, ishq zikriga bag’ishlangan boblarda ruhiy tarbiyaning muhim bosqichlari bo’lmish insoniy fazilatlarining irfoniy-axloqiy talqini keltirilar ekan, bunda Hazrat Ali hikmatlarini badiiylashtirish tajribasining manfaatlari namoyon bo’ladi. “Asarda Alisher Navoiy adabiy-estetik qarashlari va til odobi masalalari ifodasi” deb nomlangan ikkinchi faslda adibning so’z bilan bog’liq fikrlari o’rganib chiqilgan. Navoiyning “Nazm ul-javohir”da aks etgan so’z haqidagi qarashlarida uning masalaga ikki taraflama yondashuvi namoyon bo’lgani aniqlangan. Bir tomondan, u so’zning poetik funksiyalari haqidagi fikrlarini bayon qilsa, ikkinchi tomondan, so’z odobi haqidagi didaktik qarashlarini o’rtaga tashlaydi. Muqaddima qismida bayon etilgan so’z bilan bog’liq fikrlar adabiy-estetik xarakterda, asarning asosiy qismidan o’rin olgan Hazrat Ali hikmatlari asosidagi ruboiylarda esa til odobiga oid muhim masalalar yoritiladi. Muallif Qur’oni karim va hadisi sharif mazmuniga mos ravishda so’zning mohiyati, qudrati, qadr-qimmat, turlari, so’zlashuv odobi va til ofatlari kabi muhim axloqiy masalalarni o’quvchiga sodda va ravon tarzda anglatib, uni mulohaza yuritishga da’vat etadi. Shu bilan birga, “Nazm ul-javohir”da Navoiy so’zning shakl va ma’no nuqtai nazaridan uch darajaga bo’linishini e’tirof etadi: a’lo (oliy), avsat (o’rta) va adno (quyi). Buyuk shoir a’lo darajadagi so’z sifatida Alloh kalomi bo’lmish Qur’oni karim, hadisi sharif va barcha anbiyoyu avliyolar hikmatlarini; avsat

darajadagi soʻz sifatida balogʻat ilmining sohiblari kalomlarini, adno darajadagi soʻz sifatida esa oddiy xalqning kundalik turmushda ishlatadigan soʻzlarini koʻrsatadi. Bunday xulosalar ulugʻ mutafakkirning boshqa asarlarida uchramasligi va uning adabiy qarashlarini toʻldirib turishi bilan eʼtiborga loyiq. “Nazm ul-javohir”da badiiy gʻoya va shakl munosabati” deb nomlanib, uch faslni oʻz ichiga oladi. Bobning birinchi faslida “Badiiy tasvir vositalari istifodasidagi struktur oʻziga xosliklar” haqida soʻz boradi. Maʼlumki, mumtoz adabiyot namunalari tadqiqida anʼanaviy kanonik mezonlar asosidagi badiiyat va u orqali koʻzda tutilgan funksional oʻziga xosliklarni anglab yetish alohida ahamiyat kasb etadi. Binobarin, ijodkorning mahorati teran mazmunni goʻzal shaklda ifoda eta bilishda namoyon boʻladi. Alisher Navoiy ijodining bezavollik sabablaridan biri uning nafaqat maʼnaviyat qomusi, balki sanʼat moʻjizasi ham ekanligidadir. Xususan, “Nazm ul-javohir” asari muqaddimasidan oʻrin olgan quyidagi nasriy parchada rujuʼ sanʼatining oʻxshatish asosidagi oʻziga xos shakli – tashbehi tafzil sanʼatidan mohirona foydalanilgan boʻlib, unda Navoiyning nuqtadon va sanʼatpardoz shoir sifatidagi mahorati namoyon boʻlgan: “maoni sarvu gullari bila ruhparvar maqosidi shamshod va sunbullari birla ruhgustar, yoʻq, yoʻqkim juzve, balki daftare, ne daftarkim, junge, qaysi jungkim, bahre!

Juzv desam, qaysi juzvning har harfi mazhari kull boʻla olgʻay.

Agar jung desam, qaysi jungda yuz daryo topilibdur va agar daryo desam, qaysi daryoning har durri quyosh gavharigʻa ortiqliq qilibdur”. Bu yerda “Nazm ul-javohir” asarining yozilishiga ilhom bergan Husayn Boyqaroning “Risola”si xususida soʻz borayapdi. Navoiy mazkur ijod namunasining benazir ekanligini alohida eʼtirof etadi. Bunda shoir dastlab asarning “maʼno sarv-u gullari bilan ruhni parvarishlovchi va maqsad shamshod-u sunbullariga ruh bagʻishlovchi” ekanligini bayon etar ekan, tadrijiy ravishda fikridan qaytib, uni avval juzv, keyin daftar, soʻngra jung, va nihoyat bahr deb ataydi. Shundan soʻng fikridan qaytish sabablarini nozik badiiy dalillar bilan izohlab beradi. “Juzv”ning lugʻaviy maʼnosi “boʻlak”, “qism” boʻlib, keltirilgan parchada u orqali “Risola”ning Husayn Boyqaro tabʼidan bir namuna ekanligiga ishora qilingan. Navoiy “Risola”ni “juzv” deb ataganligi fikridan qaytib, uning har bir harfiga “mazhari kull” – “butunning ifodasi” deb baho berar ekan, asarda koʻtarilgan masalalarning ahamiyatini poetik til bilan koʻrsatib bergan. Juzvdan kattaroq ijod jamlanmasi daftar, undan ham yirigi jungdir. Lugʻatda “jung” soʻzi ikki xil mazmun bilan izohlanadi. Birinchisi “turli sheʼrlar yozib qoʻyladigan daftar; tanlangan asarlar toʻplami”, ikkinchi maʼnosi esa “katta 16 kema”dir. Eʼtiborlisi, nasriy parchada mazkur soʻzni har ikki maʼnoda ham tushunish mumkin. Dastlab, birinchi maʼnosida tushunsak, “u oddiy daftar emas, balki yuksak fikrlar aks etgan bitikdir” mazmunini, ikkinchi maʼnosida tushunsak esa “u oddiy daftar emas, balki maʼno durlarini oʻziga jo etgan katta kemadir” mazmunini ifoda etadi. Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” xotimasida bu asarning olamda tengi yoʻqligini faxr bilan taʼkidlaydi:

Bu turfaki farxundadurur foli aning,  
Yoʻq mohjabinlar ichra timsoli aning,  
Ham “Fotiha”si nuqtasidur xoli aning,  
Ham xotima lululari xalxoli aning

Navoiyning eʼtirof etishicha, “Nazm ul-javohir” shunday ajoyib asarki, uning foli – kelajagi ham, albatta, muborak va saodatli boʻladi. Ushbu jumla ortida buyuk shoirning orzu-umidi aks etgan boʻlib, unda muallifning asar kelgusi avlod uchun ham sevimli va manfaatli boʻlishi istagi yashirin. Ilmi sanoyiʼda bu insho sanʼatining tamanniʼ usuli deb yuritiladi. Ikkinchi

misrada esa ijodkor uning soʻz goʻzallari ichra tengsiz ekanligini taʼkidlar ekan, keyingi misralarda bunga oʻziga xos izoh beradi. Mumtoz adabiyotimizda maʼshuqa yuzidagi xolga uning husniga husn qoʻshuvchi unsur sifatida qaralib, alohida tavsiflangan. “Xoli oddiy xol emas, balki asar fotihasidagi – boshlanmasidagi ilk nuqtadir” ushbu taʼrif orqali Navoiy, bir tomondan, asarning nafaqat har bir soʻzi, balki nuqtasi ham goʻzalligini mubolagʻaviy taʼriflash orqali oʻquvchi tasavvurida uning obrazli qiyofasini yaratishga muvaffaq boʻlgan boʻlsa, boshqa bir tomondan, “Fotiha” soʻzini qoʻllab talmeh sanʼatiga murojaat qilish orqali Qurʼoni karimga ishora berib, asarning ildizi ilohiy manbaga borib taqalishini ifodalamoqda. U orqali Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” asariga ishora qilinmoqda. Bu orqali buyuk ijodkor “Nazm ul-javohir”ning yaratilishiga asos boʻlgan muqaddas manba va uning muallifiga oʻz hurmatini ham izhor qilmoqda. Arab tilida “xalxol” soʻzi “oyoqqa taqiladigan qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan oltin yoki kumush halqa” maʼnosini bildiradi. “Asar shunday goʻzalki, uning oyoqlari laʼl-injular bilan ziynatlangan” deyish orqali shoir ruboiylar xotimasida Hazrat Alining “Nasr ul-laoliy” asaridan oʻrin olgan hikmatlar aks etganini poetik ifoda etadi. “Fotiha” – boshlanmadagi “fe” nuqtasi yuzdagi xolga, xotima laʼllari oyoqdagi xalxolga nisbat berilishi laffu nashr hukmiga muvofiq keladi. Muallif boshlanma maʼnosidagi “fotiha” yuzdagi xol bilan, soʻngsoʻz maʼnosidagi “xotima” oyoqdagi xalxol bilan aloqadorlik hosil qilishini anglab yetishni oʻquvchiga aytadi. Buni idrok etgan zakiiy oʻquvchi Navoiy “Nazm ul-javohir”dek soʻz goʻzalining yuzidan oyogʻigacha – boshdan oxirigacha maʼno javohirlari bilan ziynatlanganini hayratomuz darajadagi mahorat bilan taʼriflab berganiga ishonch hosil qiladi. “Ruboiylar vazni va poetik niyat aloqasi” deb nomlangan ikkinchi faslda asar vazni va ritmik variatsiyaga murojaat qilinishi ijodkorning qanday poetik niyatini yuzaga chiqarishga sabab boʻlgani, shakldagi oʻzgarish mazmunda qay tarzda oʻz ifodasini topgani, asar shakli va mazmuni oʻrtasidagi ichki bogʻliqlik va uygʻunlik ochib berilgan. Ritmik variatsiya aruziy hodisa boʻlib, bir vaznning ichki imkoniyatlar asosida yangi variantlarga ega boʻlishidir. Ushbu sohada maxsus tadqiqot olib borgan olim D.Yusupova ritmik variatsiyaning badiiy funksiyalari toʻgʻrisida batafsil maʼlumot bergan. Unga koʻra, ritmik variatsiya faqat shakl hodisasi boʻlibgina qolmay, muayyan darajada mazmunda ham oʻz aksini topadi. Ushbu hodisa ruboiyda axrab (maʼuvlu) va axram (maʼuvlun) ruknlarining almashinib kelishida kuzatiladi. Bir tarmoq doirasida ritmik variantlarning almashinuvi koʻproq shaklga xos hodisa boʻlib, u mazmunda deyarli ahamiyat kasb etmaydi. Biroq tarmoqlararo ritmik variatsiyaning qoʻllanishi ham shaklga, ham mazmunga birday taʼsir koʻrsatadi. Sababi axramli misra ruboiyda fikr urgʻusiga ega boʻladi. Soʻzda urgʻu olgan boʻgʻin boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan talaffuz qilinib, choʻziqroq oʻqilgani kabi sheʼrda ham fikr urgʻusi olgan misra boshqa misralardan ajralib turuvchi ohangga ega boʻladi. Ammo bu bilim oddiy ilm emas. Sababi oddiy ilm aqlga, irfon esa qalbga suyanadi. Shu bois ilm sohibini olim, irfon sohibini esa orif deydilar.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Йўлдошев. Бадий матн лингвопоэтикаси. - Т.: Фан, 2008, 127-бет.
2. Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона, 2002, 149-бет.
3. Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир [Электронный ресурс]. URL: <http://navoi.natlib.uz>:
4. Азимова Д., Каюмов А.П. Жемчужные строфы. Ташкент: Oʻqituvchi, 2014.
5. Ражабова М. Алишер Навоий “Назм ул-жавоҳир” асарининг манбалари ва бадийяти: Фил. фан. номз. дисс. – Тошкент. 2007.



6. Qur'oni karim "Haj" surasining 23-oyatidan olingan
7. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Қуръони карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2022. – Б.333.
8. И.Ҳаққул. Навоий шеъриятида фано талқинлари / Мерос ва моҳият. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.95.
9. Навоий Алишер. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. 14-том. Маҳбуб ул-қулуб. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.47.
10. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б.235-236.
11. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б.78.
12. Юсупова Д.Р. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадиий уйғунлиги. – Фил. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2008.

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 7 (4) – 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).